

TADBIRKORLIK SUB'EKTLARIDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRISHNING JORIY HOLATI, TARMOQ TUZILMASI VA ASOSIY TO'SIQLAR

(Namangan viloyati misolida)

Namangan davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti,
Moliyaviy munosabatlar kafedrasida o'qituvchisi,
Asraqulov Farrux Rustamjon o'g'li
farruxasraqulov94@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Namangan viloyatida tadbirkorlik sub'ektlarida xalqaro standartlar (ISO) asosida mahsulot ishlab chiqarishning amaldagi holati va muammolarini rasmiy statistika hamda ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qiladi. 2024–2025 yillar kesimida viloyat sanoatining tarmoq va texnologik tarkibi, korxonalar soni va ishlab chiqarish hajmlari dinamikasi umumlashtirildi. Natijalar Namanganda to'qimachilik/kiyim va oziq-ovqat tarmoqlari ustun ekani, yuqori texnologiyali segment ulushi pastligi va bu sharoitda standartlarni joriy etish korxonalarining ichki jarayon samaradorligi hamda eksportga moslashuvi uchun asosiy drayver bo'la olishini ko'rsatdi. Muammolar moliyaviy, texnologik, kadrlar va institutsional to'siqlarga ajratilib, oziq-ovqatda HACCP/ISO 22000 joriy etishda uchraydigan hujjatlashtirish va bilim yetishmasligi kabi omillar ilmiy adabiyotlar bilan solishtirildi. Tadqiqot yakunida Namangan uchun sohalar kesimida “to'siqlar matritsasi” va tadbirkorlik sub'ektlari uchun amaliyotga yo'naltirilgan tavsiyalar berildi.

Annotation. This article analyzes the current state and problems of product production in the province of Namangan on the basis of international standards (ISO) in business entities on the basis of official statistics and scientific literature. In the 2024-2025 section, the network and technological composition of the industry of the region, the number of enterprises and the dynamics of production volumes are

summarized. The results showed that the textile/clothing and food industries are dominant in Namangan, the high-tech segment share is low, and the introduction of standards in these conditions can be the main driver for the internal process efficiency of enterprises and their adaptation to exports. The problems were broken down into financial, technological, human resources and institutional barriers, and factors such as the lack of documentation and knowledge found in the introduction of HACCP/ISO 22000 in food were compared to scientific literature. At the end of the study, a “barrier matrix” in the cross section of fields for Namangan and practice-oriented recommendations for business entities were given.

Аннотация. В данной статье анализируется текущее состояние и проблемы производства продукции на основе международных стандартов (ISO) в субъектах предпринимательства Наманганской области на основе официальной статистики и научной литературы. На рубеже 2024-2025 гг. обобщена отраслевая и технологическая структура промышленности области, динамика численности предприятий и объемов производства. Результаты показали, что текстильная/швейная и пищевая промышленность в Намангане доминируют, доля высокотехнологичного сегмента невысока, и внедрение стандартов в этих условиях может стать основным драйвером эффективности внутренних процессов предприятий, а также их экспортной адаптации. Проблемы были разделены на финансовые, технологические, кадровые и институциональные барьеры, а такие факторы, как документация и недостаток знаний, обнаруженные при внедрении HACCP/ISO 22000 в продуктах питания, сравнивались с научной литературой. По итогам исследования была сформулирована “матрица барьеров” в разрезе отраслей для Намангана и практико-ориентированные рекомендации для субъектов предпринимательства.

Kalit so‘zlar: Namangan viloyati, ISO, standartlashtirish, to‘siqlar, HACCP, sanoat tarkibi, texnologik tarkib.

Kirish (Introduction). Namangan viloyatida sanoat korxonalarini soni va ishlab chiqarish tarmoqlarining diversifikatsiyasi korxonalardan sifat va xavfsizlik

standartlariga moslashuvni talab qiladi. 2025 yil 1 iyun holatiga ko'ra sanoat korxonalari soni 4132 ta bo'lib, yirik qismi oziq-ovqat va kiyim ishlab chiqarishga to'g'ri keladi.

Bunday tarkibda xalqaro standartlar eksport bozorlariga chiqish, ichki bozorda brend ishonchi va kontrakt intizomini ta'minlashda muhim.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi islohotlar (Qonunchilik va agentlik faoliyati) standartlashtirish va muvofiqlikni baholashning institutsional asoslarini mustahkamlaydi.

Metodika (Methods). Namangan viloyati statistika boshqarmasi press-revizlari (2024 yil yillik, 2025 yil yanvar–may, 2025 yil yanvar–oktyabr) hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlar. Tahlil turlaridan deskriptiv statistik tahlil (tarmoq ulushlari, hajmlar), kontent-tahlil (to'siqlar), ilmiy adabiyotlar bilan solishtirma tahlil (ISO/HACCP bo'yicha barerlar).

Natijalar (Results) Sanoat tarkibi va ishlab chiqarish yo'nalishlari 2024 yil yakuni bo'yicha Namanganda ishlab chiqaradigan sanoatda to'qimachilik ulushi 21,4%, oziq-ovqat ulushi 15,7%, kiyim ishlab chiqarish ulushi 13,2% ekani keltirilgan; shuningdek, 2024 yilda to'qimachilik ishlab chiqarish hajmi 6 853,0 mlrd so'm, kiyim ishlab chiqarish 4 224,9 mlrd so'mga teng ekani qayd etilgan. 2025 yil yanvar–oktyabr davrida esa ishlab chiqarish tarkibida to'qimachilik–kiyim–teri mahsulotlari ulushi 39,4%, oziq-ovqat–ichimlik–tamaki ulushi 28,3% bo'lgan.

Bu raqamlar Namanganda standartlar (ISO 9001, ISO 22000/HACCP, ISO 14001, ISO 45001)ni keng joriy etish uchun tarmoq "bazasi" mavjudligini ko'rsatadi. Korxonalar soni va tarmoqlar kesimi bo'yicha, 2025 yil 1 iyun holatida 4132 ta sanoat korxonasi ichida oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilar 730 ta (17,7%), kiyim ishlab chiqaruvchilar 701 ta (17,0%), nometall mineral mahsulotlar 632 ta (15,3%), to'qimachilik 414 ta (10,0%) ekani ko'rsatilgan.

Demak, standartlashtirish siyosati va amaliyotida aynan shu sohalarga yo'naltirilgan "maqsadli dastur" eng yuqori qaytishga ega bo'lishi mumkin.

Texnologik tarkib: yuqori texnologiya ulushining pastligi bo'yicha, 2025 yil yanvar–mayda ishlab chiqaradigan sanoatda yuqori texnologiyali tarmoq ulushi 1,1%, 2025 yanvar–oktyabrda esa 1,5% ekani qayd etilgan. Bu holat standartlarni joriy etishni texnologik modernizatsiya bilan “bog‘lab yuborish” zarurligini anglatadi: chunki standartlar o‘lchash, nazorat, kalibrovka, xavfsizlik va resurs tejamkorlik orqali texnologik intizomni kuchaytiradi.

Asosiy to‘siqlar (ilmiy adabiyot + mahalliy kontekst). To‘siqlar 4 guruhda jamlandi: Jumladan,

1. Moliyaviy to‘siqlar: konsalting, audit, laboratoriya sinovlari, kalibrovka va hujjatlashtirish xarajatlari.
2. Texnologik to‘siqlar: o‘lchash/nazorat nuqtalari yetishmasligi, ishlab chiqarish intizomining pastligi, traceability (izchillik) tizimining zaifligi.
3. Kadrlar to‘siqlari: ichki auditor, sifat menejeri, HSE mutaxassisi tanqisligi.
4. Institutsional to‘siqlar: muvofiqlikni baholash infratuzilmasiga kirish, axborot-metodik yordamning cheklanganligi.

Oziq-ovqat sohasida HACCP/ISO 22000 joriy etish barerlari bo'yicha klassik tadqiqotlar bilim va hujjatlashtirish qiyinligi, murakkablik hamda xodimlar tayyorgarligi yetishmasligini asosiy to‘siq sifatida ko‘rsatgan.

Namangan oziq-ovqat segmentida ham xuddi shu omillar (hujjat yuritish, sanitariya rejimi, ichki nazorat) eng “og‘riqli nuqta” sifatida namoyon bo‘lishi ehtimol.

Muhokama (Discussion). Natijalar Namangan viloyatida standartlar joriy etish “eksport”nigina emas, balki ichki samaradorlikni ham oshirish uchun asos bo‘la olishini ko‘rsatadi. UNIDO yondashuvi bo'yicha sifat infratuzilmasi va standartlar sanoat raqobatbardoshligiga xizmat qiluvchi strategik resurs hisoblanadi.

Biroq to‘siqlar tizimli: moliya + kadr + texnologiya + institutsional muhit birgalikda hal etilmasa, sertifikatlashtirish “formal” tus olishi mumkin.

Xulosa (Conclusion). Namangan viloyati sanoat tarkibi xalqaro standartlarga tez moslashishi mumkin bo‘lgan bazani ko‘rsatadi (ayniqsa to‘qimachilik/kiyim va oziq-

ovqat). Biroq barerlar kompleks bo‘lib, “maqsadli dastur” (o‘qitish–laboratoriya–audit xarajatlarini kamaytirish–infratuzilma) zarur. Keyingi bosqichda korxonada darajasida so‘rovnoma va keys-tahlil orqali to‘siqlarning salmog‘i va standartlarning ta’siri ekonometrik/regressiya modelida baholanishi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. UNIDO. Quality Infrastructure System (QI) materiallari.
2. UNIDO. QI4SD Index Results Report 2024/2025.
3. ISO. ISO 9001 va moliyaviy samaradorlik bo‘yicha meta-tahlil sharhi.
4. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. Sanoat press-revizlari (2024–2025).
5. Lex.uz: Texnik jihatdan tartibga solishga oid qonun va islohot hujjatlari.
6. A.Asqarov, The need for innovative pedagogical technologies to improve the financial literacy of student youth
7. A.Asqarov, Oliy ta’lim muassalarida moliyaviy savodxonlikni oshirishni pedagogik texnologiyalari
8. A.Asqarov, The Process of Organizing the Increase in Financial Literacy in Higher Educational Institutions
9. A.Asqarov, The need for innovative pedagogical technologies to improve the financial literacy of student youth